



FAKTORING XIZMATLARI BOZORI SHARHI

QISQA TAVSIF

2026-YIL I CHORAK

2026-yilning I choragida O'zbekistonda faktoring xizmatlari bozori sezilarli darajada faollashdi. Kredit tashkilotlari tomonidan jami 2,3 trln so'mlik faktoring xizmatlari ko'rsatilib, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan 75 foizga o'sgan.

Faktoring xizmatlarining asosiy qismi tijorat banklari hissasiga to'g'ri kelib, ular tomonidan 2,1 trln so'mlik xizmatlar ko'rsatildi. Mikromoliya tashkilotlari esa 125 mlrd so'mlik faktoring xizmatlari ko'rsatildi.

Bozorda raqamli faktoring xizmatlarining ulushi ham ortib bormoqda. I chorakda jami faktoring xizmatlarining 53 foizi elektron platformalar hissasiga to'g'ri keldi. Jumladan, "Ozplanet" platformasi orqali 627 mlrd so'mlik, "Finmakon" platformasi orqali esa 571 mlrd so'mlik faktoring xizmatlari amalga oshirilgan.

Tadbirkorlik subyektlarining aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojini faktoring orqali moliyalashtirish hajmi oshib bormoqda. Xususan, 2026-yil mart oyida ko'rsatilgan faktoring xizmatlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 18 foizga o'sib, 798 mlrd so'mni tashkil etgan.

Hududlar kesimida 2026-yilning yanvar-mart oylarida faktoring xizmatlarining eng katta qismi Toshkent shahri, Namangan viloyati, Toshkent viloyati va Buxoro viloyati hissasiga to'g'ri kelgan.

Iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faktoring xizmatlarining asosiy qismi savdo va xizmat ko'rsatish sohasiga yo'naltirilib, 1,2 trln so'm yoki jami hajmning 53 foizini tashkil etgan. Sanoat sohasiga 868 mlrd so'm yoki 38 foiz yo'naltirilgan.

2026-yilning I choragida tijorat banklari tomonidan 190 mlrd so'm ekvivalentida xalqaro faktoring xizmatlari ko'rsatildi. Bu jami faktoring xizmatlarining 8 foizini tashkil etgan bo'lib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 41 barobarga ko'p.

Xalqaro faktoring xizmatlarining asosiy qismi savdo va xizmat ko'rsatish hamda sanoat sohalariga yo'naltirildi. Jumladan, savdo va xizmat ko'rsatish sohasiga 98 mlrd so'm yoki jami hajmning 52 foizi, sanoat sohasiga esa 92 mlrd so'm yoki 48 foiz mablag lar yo'naltirilgan.

Davlatlar kesimida xalqaro faktoring xizmatlarining asosiy qismi Birlashgan Arab Amirliklari - 73,3 mlrd so'm (39 foiz), hamda Rossiya - 65,4 mlrd so'm (34 foiz) bilan bog'liq tashqi savdo operatsiyalarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan.

Shuningdek, xalqaro faktoring xizmatlarining qolgan qismi Tojikiston, Qozog'iston, Turkiya, Qirg'iziston, Afg'oniston, Xitoy, AQSH, Shvetsariya va Polsha bilan bog'liq tashqi savdo operatsiyalarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan.